TOSHKENT SHAHRI SIRG‘ALI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 20-noyabr | 305-14-201-Q/24 | Sergeli tuman hokimligi

Toshkent shahar, Sergeli tuman, “Qumariq” MFY, Sayfi Olim ko‘chasida joylashgan ko’p qavatli uylar joylashgan hududga issiqlik qozonxonasini o‘rnatish to‘g‘risida

Sergeli tuman hokimligiga “UZTRANSGAZ” Toshkent MGQB 2024-yil 14-fevralda 46-01-10-09/235-sonli xat bilan murojaat qilib, unda Toshkent MGQB sanoat hududida 2003-yilda foydalanishga topshirilgan qozonxona yaroqlilik muddati 20-yildan ortganligi, qozonxonani demontaj qilish va boshqarma binolari uchun avtomatik turdagi energiya tejamkor gaz qozonlari o‘rnatish ishlari olib borilishi rejalashtirilganligini, shu sababli Toshkent shahar, Sergeli tuman, “Qumariq” MFY, Sayfi Olim ko‘chasida joylashgan 4 ta 2 qavatli, jami 48 ta xonadon korxonaga tegishli qozonxona orqali isitilishi 2023-2024-yil isitish mavsumi yakunlangandan so‘ng tizimdan uzilishi, kelgusida aholi xonadonlariga issiqlik energiyasini yetkazib berish boshqarmaning faoliyati turiga kirmasligi ma′lum qilingan.

Hozirgi kunda yuqori manzildagi 48 ta xonadonli ko‘p qavatli uylar issiqlik tizimidan butkul uzilgan.

2024-2025-yil kuz-qish mavsumida 48 ta xonadon aholisi issiqlik tizimisiz qolganligi, ko‘p qavatli uylarni issiqlik tizimiga ulash uchun yaqin masofada boshqa qozonxona yoki professional boshqaruv kompaniyasiga qarashli ko‘p qavatli uylar yo‘qligi, muammoni hal etish uchun Toshkent shahar hokimligiga 2024-yil 26-aprelda 830/05-sonli murojaat xati yuborilgan.

Mazkur murojaat xati Toshkent shahar hokimligi tomonidan ko‘rib chiqish uchun mutasaddi tashkilotlarga 2024-yil 16-mayda 4273-03-sonli topshiriq berilgan.

Mazkur topshiriq yuzasidan “VEOLIA ENERGY TASHKENT” Chet el korxonasi MCHJning 2024-yil 30-mayda bergan out-gen-06/7-04/119v-sonli javob xatida modul turdagi yangi qozonxona qurish, keyinchalik uni ekspluatatsiya qilish uchun “VEOLIA ENERGY TASHKENT” Chet el korxonasi MCHJ tasarrufiga o‘rnatilgan tartibda topshirilishi taklif etilgan.

O‘tgan vaqt mobaynida Sergeli tuman, “Qumariq” MFY, Sayfi Olim ko‘chasida istiqomat qiluvchi fuqarolar tuman hokimligiga isitish bilan bog‘liq masalani ijobiy hal

etib berilishini so‘rab ko‘plab og‘zaki hamda yozma, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portaliga murojaatlar qilganlar.

Tuman hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi “Mablag’ ajratish to‘g‘risida”gi 283-14-201-Q/24-sonli qaroriga asosan 2024-yil 7-noyabrda 44-sonli shartnoma tuzilib, “Chirchiq Flamr” MCHJdan tabiiy gazda ishlovchi MTK-300 Gn rusumli modul tipdagi isitish qozonxonasi xarid qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, tuman hokimining Qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish majmuasining kiritgan bildirgisini inobatga olib

Q A R O R Q I L A M A N :

1.Toshkent shahar, Sergeli tumani, “Qumariq” MFY, Sayfi Olim ko‘chasida joylashgan 18 ta ko‘p qavatli uylar joylashgan hududga issiqlik qozonxonasini o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari A.Ganiyev, tuman kommunal xizmatlari – tuman “Suv ta’minot” korxonasi (v.v.b J.Qudratov), tuman “Elektr tarmoqlari korxonasi” (v.v.b Z.Ergashev), tuman gaz ta′minot bo‘limi (R.Isakbayev), “VEOLIA ENERGY TASHKENT” Chet el korxonasi MCHJ tuman bo‘limi (T.Baratov), tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (R.Xabibov), tuman SEO va JSQ tuman bo‘limi (Sh.Shanazarov):

qozonxonani kommunikatsiya tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlar olish ishlari, unga hisoblash uskunalarini o‘rnatish masalasi o‘rnatilgan tartibda amalga oshirilsin, bunda yong’in xavfsizligi hamda sanitariya me’yor va qoidalariga rioya etilishi ta’minlansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Ganiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.Shukurov**